

Tibbiyot fakulteti farmatsiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Sa‘dullayeva Saida Jasurbek qizi

Ilmiy rahbari dots.Qalandarov Qobil Suyarovich

Toshkent shahar Alfraganus University.

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi biz shuni ta‘kidlab o‘tishimiz joizki Abu Ali ibn Sino yevropada (Avitsenna) nomi bilan tanilgan bobomiz tabobat ilmini an‘anaviy tibbiyot ya‘ni xalq tabobati orqali avloddan-avlodga o‘tishini ko‘zlab tibbiyot ilmini chuqur o‘rganganlar va biz yosh avlod tibbiyotchilarga ham ibn Sino bobomizni tibbiyot sohasidagi balkim falsafiy sohalaridagi ilmlari hozirgi davrda ham asq otmoqda desam mubolag‘a bo‘lmaydi.*

Kali so‘zlar: *Tib qonunlari, Falsafa, Tabobatchi, Dori-darmonlar, An‘anaviy Tibbiyot, Yevropa*

Bilamizki, ibn Sino bobomiz “ **Tib qonunlari** “ asarlari o‘z davridagi tabobatning eng muhim asarlaridan bo‘lib, unda inson sog‘ligi va kasalliklarga oid bo‘lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to‘la bayon etilgan. Ana endi bugungi tezisimizning asosiy masalasiga o‘tsak, ibn Sino bobomiz nafaqat tibbiyot sohasiga balkim, ilmiy faoliyatlarining va merosining asosiy qismini falsafa fanlariga ham bag‘ishlaganlar. Uning qator ko‘p jildli asarlari falsafa ilmlarining tahliliga bag‘ishlagan edilar. Ibn Sino davrida falsafa ilmiy metafizika, bilish nazariyasi va mantiq, fizika, matematika ilmlarining barcha yo‘nalishlari, axloqshunoslik, iqtisod, siyosiy ilmlarni ham qamrab olar edi. Abu Ali ibn Sino bobomiz 17 yoshlaridayoq, Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanilgan davrlar edi.

Buxorolik alloma ibn Sino o‘zining qisqa, ammo g‘oyatda mahsulli umrida oltmishga yaqin tibbiyotga oid asarlar yozdilar. Alloma o‘z hayotini butun insoniyatni sog‘lig‘ini muhofaza qilishga bag‘ishladi, deb aytishimiz mumkin.

O'z davrining yetuk ilmi tabobatchisi ibn Sino xalqimiz balkim yevropa davlatlarida ham dong taratgan edilar.

Abu Ali ibn Sino xalq tibbiyoti ya'ni an'anaviy tibbiyotda kasalliklarga erta tashxis qo'yishlari va davolashlari xattoki bizning zamonaviy tibbiyotga avloddan-avlodga o'tib kelmoqda desam mubolag'a bo'lmaydi. Ibn Sinoning kasalliklarni davolash samaradorligi va xavfsizligi isbotlangan xalq tabobati orasidagi usullarining bir qismi zamonaviy tibbiyot tomonidan qabul qilingan. Abu Ali ibn Sino bobomiz asosan kasalliklarga davoni xalq tabobati orqali yechimini topishga harakat qilganlar. Shu orqali ibn Sino bobomizni tabobat ilmidagi hissalarini an'anaviy tibbiyotga aylana oldi. Ba'zida ko'rishimiz mumkinki, zamonaviy dori-darmonlar bilan emas balkim, xalq tabobati orqali davo choralari yaxshiroq ta'sir qilgan holatlarga ham guvoh bo'lganmiz. Bu uslublarni bizga yordam berishida kimning hissasi katta deb o'ylashimiz mumkin, albatta Abu Ali ibn Sino allomamiz xattoki katta kasalliklardan tortib kichik sifatida ko'rilgan kasalliklarga ham xalq tabobatida yechim topish yo'llarini bizga an'anaviy tibbiyot yo'li orqali yetib kelmoqda desam mubolag'a bo'lmagan bo'ladi. Shunday qilib ibn Sino allomamiz deyarli ko'p kasalliklarga davo choralari "Tib qonunlari" asalarida ifoda qilib bera olganlarga va bu davo choralari hozirgi davrda ham tibbiyotchilarimiz orasida ancha asq otmoqda.

Bundan tashqari Ibn Sino bobomiz dorivor o'simliklar negizini chuqur o'rganib, dorivor o'simlik mahsulotlarining yuqori sifatli bo'lish mezonini va unga qo'shiladigan talabni aniqlash bilan Ibn Sino kelajak farmakognoziya faniga asos solganlar. Dorivor o'simliklar mahsulotlarini yig'ish vaqtlari, quritish usullari va saqlash muddatlari to'g'risidagi Ibn Sino fikrlari, uni dorivor mahsulotlarni yuqori sifatli bo'lishiga qo'ygan talablari, albatta, kelajakda farmakognoziyaning fan sifatida shakillanishiga va bu fanni maqsadlarini aniqlashga so'zsiz o'z ta'sirini ko'rsatadi. Alloma dori vositalarini davolash maqsadida ishlatilishida asosiy uchta prinsipga rioya etilishi zarurligini ta'kidlaydi. Bular, birinchisi, dorilarni kayfiyatga qarab, ya'ni issiqlik yo sovuqlik, ho'llik yo quruqligiga qarab tanlash qonuni, ikkinchisi, dorilarning miqdorini saqlash qonuni; bu ikkinchi qonun dorilarning og'irligini o'lchash qonuniga va dorilar kayfiyatini o'lchash, ya'ni

Issiqlik, sovuqlik va boshqalarning darajasini aniqlash qonuniga bo'linadi. Uchunchisi esa dorilarni iste'mol qilish vaqtini aniqlash qonuni. Abu Ali ibn Sino qisqa ammo mazmunli hayot kechirgan, yaratgan asarlari ayniqsa "Tibbiy doston" tibbiyotni, xususan dorishunoslikni rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga buyuk alloma tabobat mavzuiga oid bir necha nazmiy asarlar yaratgan. U bunday asarlarning aruzning rajaz vaznida yozganligi jihatidan ularni urjuzalar deb atagan. Abu Ali ibn Sino tabobatga oid 8 ta doston yozgan va ular quyidagilar: Sog'liqni saqlash-gigiena haqida urjuza, yilning to'rt fasllari haqida urjuza, anatomiya haqida urjuza, Gippokrat vasiyatlar haqida urjuza, tajribadan o'tgan amaliyotlar haqida urjuza, tibbiy nasihatlar haqida urjuza, aloqa haqida urjuza, tabobat haqida urjuza.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ibn Sino allomamiz davrlarida xalq tabobati ancha rivoj topgan davrlar edi. Shu orqali asrlar osha an'anaviy tibbiyot bo'lib kela olgan. Abu Ali ibn Sino bobomizni yozib qoldirgan asarlari hali ko'p asrlar tibbiyotchilar orasida asq otadi degan umiddaman !

Foydanilgan adabiyotlar

- 1- Petrov, V. D. „Ibn Sina-velikiy sredneaziatskiy ucheniy ensiklopedist.“ Abu Ali Ibn Sina. Kanon vrachebnoy nauki. Tashkent, 1981
- 2- Maurice Mwu, Eric Gbodossou. [„ALTERNATIVE MEDICINE: NIGERIA The role of traditional medicine“](#). *The Lancet* (2000-yil dekabr).
- 3- [„Avicenna | Persian philosopher and scientist“](#), *Encyclopedia Britannica*.